Sun'iy intellektga qaramlikni umumiy tarzda foydalanuvchining SI vositalaridan foydalanishni nazorat qila olmasligi, intellektual faoliyatni tobora ko'proq SIga topshirishi, emotsional yengillik yoki psixologik qo'llab-quvvatlash uchun SI bilan muloqotga ehtiyoj sezishi hamda algoritmik moslashuvchan tizim bilan doimiy interaktiv aloqaga psixologik jihatdan bog'lanib qolishi sifatida ta'riflash mumkin [3]. Bu holatda SI oddiy texnik vosita bo'lib qolmaydi; u foydalanuvchi uchun fikrni tartibga soluvchi, qaror tanlashga yordam beruvchi, kayfiyatni yumshatuvchi va ayrim vaziyatlarda "doimiy mavjud suhbatdosh" sifatida idrok etiladigan psixologik obyektga aylanadi. Demak, SI qaramligi faqat ekran oldida ko'p vaqt o'tkazish yoki texnologiyadan tez-tez foydalanish bilan izohlanmaydi. Uning mohiyatida shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvoriy tizimlarining algoritmik raqamli muhit bilan uzviy bog'lanib borishi yotadi [18].

Mazkur fenomen klassik internet, smartfon, ijtimoiy tarmoq yoki o'yin qaramligiga o'xshash ayrim belgilarni namoyon qilsa-da, ularning oddiy takrori emas. An'anaviy raqamli addiksiyalarda foydalanuvchi asosan tayyor kontentni iste'mol qiladi: video ko'radi, post o'qiydi, o'yin o'ynaydi yoki xabarlar oqimini kuzatadi. Sun'iy intellekt bilan muloqotda esa foydalanuvchi passiv iste'molchi emas, balki dialogning faol ishtirokchisiga aylanadi. U savol beradi, javob oladi, fikrini aniqlashtiradi, qaror variantlarini muhokama qiladi, matn yaratadi va jarayonni o'z ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltiradi [14]. Shuning uchun SI qaramligida qaramlik obyektini faqat kontent emas, balki dialog, javob kutish, moslashgan munosabat va raqamli suhbatdosh bilan yuzaga keladigan psixologik aloqadir.

SI qaramligini aniqlashda bir nechta muhim diagnostik mezonlarga tayanish mumkin. Hozirgi ilmiy manbalarda ushbu holat mustaqil klinik tashxis sifatida to'liq rasmiylashtirilgani yo'q [19]. Biroq raqamli addiksiyalar, muammoli internet foydalanish, o'yin qaramligi va chatbotlardan haddan tashqari foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar SI qaramligining dastlabki indikatorlarini belgilash imkonini beradi [4]. Bu mezonlar klinik hukm chiqarishdan ko'ra, fenomenning psixologik chegaralarini aniqlash, xavf guruhlarini ajratish va empirik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratish vazifasini bajaradi.

Birinchi asosiy mezon - nazoratning yo'qolishidir. Bunda foydalanuvchi SI bilan muloqot qilish vaqtini, chastotasini yoki davomiyligini boshqarishda qiynaladi. Masalan, u qisqa savol berish niyatida platformaga kiradi, ammo suhbat uzoq davom etadi; foydalanishni kamaytirishga urinadi, lekin yana qayta murojaat qiladi. Bu holat raqamli addiksiyalardagi kompulsiv foydalanish belgilariga yaqin bo'lib, foydalanuvchining texnologiya bilan munosabatida ixtiyoriy nazorat sustlashayotganini ko'rsatadi [4].

Ikkinchi mezon - kognitiv tayanishning kuchayishi. Bunda shaxs mustaqil fikrlash, matn tuzish, qaror qabul qilish, rejalashtirish, muammoni tahlil qilish yoki g'oya ishlab chiqish jarayonlarida SIga tobora ko'proq murojaat qiladi [7]. Agar dastlab SI yordamchi vosita sifatida ishlatilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan u fikrlash jarayonining asosiy tayanchiga aylanishi mumkin.

1 <https://president.uz/oz/lists/view/7464>



Uchinchi mezon - kognitiv offloadingning ortishidir. Kognitiv offloading murakkab aqliy vazifalarni tashqi vosita yoki tizimga topshirish jarayonini anglatadi [8]. Aslida bu mexanizm inson faoliyatida tabiiy va foydali bo'lishi mumkin: odamlar eslatmalar yozadi, kalendaridan foydalanadi, kalkulyator ishlatadi yoki qidiruv tizimlariga murojaat qiladi. Ammo SI sharoitida bu jarayon sifat jihatidan o'zgaradi, chunki foydalanuvchi nafaqat xotira yukini, balki tahlil qilish, savol tuzish, xulosa chiqarish va baholash kabi yuqori darajadagi tafakkur operatsiyalarini ham tashqi raqamli tizimga topshira boshlaydi. Bunday holat uzoq muddatda mustaqil fikrlash, tanqidiy tekshirish va metakognitiv monitoringning susayishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchi mezon - Slga emotsional regulyatsiya vositasi sifatida tayanishdir. Foydalanuvchi yolg'izlik, xavotir, zerikish, tushkunlik yoki noaniqlik holatlarida insonlar bilan muloqot qilish o'rniga SI bilan suhbatlashish orqali yengillik izlaydi [5]. Bu jarayonning xavfli tomoni shundaki, SI doim mavjud, tez javob beradi, tanqid qilmaydi va foydalanuvchining ehtiyojiga mos ohangda javob qaytaradi. Natijada foydalanuvchi real ijtimoiy munosabatlardagi murakkabliklar, ziddiyatlar va emotsional javobgarliklardan qochib, nisbatan qulay va boshqariladigan raqamli muloqotga o'rganib qolishi mumkin.

Beshinchi mezon - ijtimoiy muloqotning texnologik vosita bilan almashishi bo'lib, bunda real odamlar bilan suhbat, maslahatlashuv yoki hamkorlik o'rini SI bilan dialog egallay boshlaydi [14]. Bu holat ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirishi, insonlararo munosabatlarda tashabbuskorlik va emotsional chidamlilikni pasaytirishi mumkin.

Oltinchi mezon - funksional buzilishlarning yuzaga kelishidir. Agar SI'dan foydalanish o'qish, ish, uyqu, vaqt boshqaruvi, diqqatni jamlash yoki kundalik majburiyatlarni bajarishga salbiy ta'sir qila boshlasa, bu qaramlik xavfining muhim belgisi sifatida baholanadi [16]. Masalan, talaba topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil o'qish, manba tahlil qilish yoki o'z fikrini shakllantirish o'rniga to'liq SI javoblariga tayanadi; natijada o'quv faoliyati tashqi ko'makka bog'lanib qoladi.

Yettinchi mezon - tolerantlik va chekinish belgilaridir. Foydalanuvchi avvalgidek qoniqish olish uchun SI bilan ko'proq vaqt o'tkazishga intiladi, SI'dan uzoqlashganda esa bezovtalik, asabiylik, bo'shliq yoki noqulaylik hissini boshdan kechiradi [21]. Bu belgilar SI qaramligi klassik addiksiya modellaridagi ayrim mexanizmlar bilan kesishishini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sun'iy intellektga qaramlikning ichki tuzilmasini tushunish uchun uni to'rtta asosiy komponent birligida tahlil qilish maqsadga muvofiq: kognitiv, emotsional, xulq-atvor va algoritmik-kommunikativ komponentlar [18]. Ushbu komponentlar alohida-alohida emas, balki bir-birini kuchaytiruvchi tizim sifatida ishlaydi. Aynan shu tizimlilik SI qaramligini oddiy texnologik odatdan ajratib turadi.

Sun'iy intellektga qaramlikning strukturaviy modelini shartli ravishda to'rt pog'onali psixologik tizim sifatida ifodalash mumkin.

Birinchi pog'onada algoritmik-kommunikativ ta'sir joylashadi: SI foydalanuvchining savollari, ohangi, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashgan javoblar yaratadi.

Ikkinchi pog'onada emotsional javob yuzaga keladi: foydalanuvchi SI bilan muloqotdan yengillik, qoniqish, tushunilganlik yoki qo'llab-quvvatlanish hissini oladi.

Uchinchi pog'onada kognitiv tayanish shakllanadi: shaxs muammo qo'yish, savol tuzish, fikr yaratish, qaror qabul qilish va refleksiya jarayonlarida Slga tobora ko'proq suyana boshlaydi.

To'rtinchi pog'onada xulq-atvoriy mustahkamlanish yuz beradi: Slga qayta-qayta murojaat qilish odatga aylanadi, foydalanish chastotasi ortadi va nazorat susayadi. Ushbu pog'onalar o'zaro yopiq sikl hosil qilib, algoritmik moslashuv → emotsional yengillik → kognitiv tayanish → kompulsiv foydalanish → qaramlikning chuqurlashishi shaklida rivojlanadi [18].


TAHLIL VA NATIJALAR

Kognitiv komponent foydalanuvchining fikrlash jarayoni SI mavjudligiga bog'lanib borishi bilan tavsiflanadi. Bunda shaxs murakkab intellektual vazifalarni bajarishda avval o'z bilim va tajribasiga emas, balki SI javoblariga suyanishga moyil bo'ladi [6]. Masalan, u muammoni o'zi aniqlashdan oldin Slga "bu masalada asosiy muammo nima?" deb murojaat qiladi; savolni mustaqil shakllantirish o'rniga SI'dan savol variantlarini so'raydi; g'oya ishlab chiqishda o'z ijodiy izlanishidan ko'ra tayyor konseptlarni tanlash bilan cheklanadi. Bunday holatda SI yordamchi vositadan tafakkur jarayonining tashkilotchisiga aylanadi. Natijada aqliy mehnatni tejash odati kuchayadi, mustaqil izlanish motivatsiyasi pasayadi va tanqidiy baholash jarayoni zaiflashadi [8].

Emotsional komponent SIning psixologik tayanch sifatida qabul qilinishi bilan bog'liq. Foydalanuvchi SI bilan suhbatda o'zini tinglangan, tushunilgan va hukm qilinmayotgandek his qilishi mumkin [5]. Bunday subyektiv tajriba, ayniqsa, yolg'izlik, emotsional charchoq, xavotir yoki ijtimoiy noqulaylik holatlarida kuchayadi. SI foydalanuvchining ohangiga moslashgan, muloyim va qo'llab-quvvatlovchi javoblar bergani sari u oddiy dastur emas, balki "emotsional xavfsiz zona" sifatida qabul qilinadi. Bu esa shaxsning emotsional ehtiyojlarini real ijtimoiy munosabatlar orqali emas, balki texnologik vosita orqali qondirish odatini shakllantiradi. Vaqt o'tishi bilan bunday odat real muloqotdagi noaniqlik, tanqid yoki ziddiyatlarga nisbatan chidamlilikni kamaytirishi mumkin.

Xulq-atvor komponenti SI bilan muloqotning takroriy va kompulsiv tus olishida namoyon bo'ladi. Foydalanuvchi SI'dan foydalanishni oldindan rejalashtirmagan bo'lsa ham, zerikish, charchoq, noaniqlik yoki qaror qabul qilishdagi ikkilanish paytida unga avtomatik tarzda murojaat qiladi [4]. Bu jarayon asta-sekin odatiy xulq sxemasiga aylanadi: savol tug'iladi - SIga murojaat qilinadi - tezkor javob olinadi - vaqtincha yengillik paydo bo'ladi - keyingi vaziyatda yana SIga qaytiladi. Bunday sikl takrorlangani sari foydalanuvchining ichki muammoni hal qilish resurslari kamroq ishga tushadi, tashqi raqamli yordam esa birlamchi strategiyaga aylanadi. Natijada vaqtning boshqarish qiyinlashadi, mustaqil faoliyat izdan chiqadi va SI bilan muloqot kundalik xatti-harakatning muhim qismiga aylanadi [16].

Algoritmik-kommunikativ komponent SI qaramligining eng o'ziga xos qatlamidir. Klassik raqamli platformalar foydalanuvchiga kontent tavsiya qilishi mumkin, lekin SI tizimlari foydalanuvchining savol berish uslubi, mavzulari, xatolari, emotsional ohangi va ehtiyojlariga mos javoblar yaratadi [14]. Bu moslashuv foydalanuvchida "meni tushunyapti", "menga mos javob beryapti", "men bilan individual ishlayapti" degan idrokni kuchaytiradi. Natijada SI bilan muloqot shaxsiylashtirilgan psixologik tajribaga aylanadi. Bu jarayonda foydalanuvchi SIga insoniy xususiyatlarni yuklashi, uni suhbatdosh, maslahatgo'y yoki hamroh sifatida qabul qilishi mumkin [15]. Shuning uchun SI qaramligida qaramlikni faqat foydalanuvchi xulqi orqali emas, balki algoritmik tizimning muloqotni qanday tashkil etishi orqali ham tushuntirish zarur.



1-rasm: Sun'iy intellektga qaramlikning strukturaviy modeli

Ushbu to'rt komponent o'zaro bog'liq spiral hosil qiladi. Avval algoritmik moslashuv muloqotni foydalanuvchi uchun jozibador qiladi. Keyin muloqot emotsional yengillik beradi. Emotsional yengillik SIga qayta murojaat qilish ehtimolini oshiradi. Takroriy murojaat esa kognitiv tayanish va kompulsiv xulqni mustahkamlaydi [18]. Shu tariqa SI qaramligi birdaniga emas, balki asta-sekin, foydalanuvchi ehtiyojlari va algoritmik javoblar o'rtasidagi takroriy o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi (1-rasmga qarang).

Sun'iy intellektga qaramlikni boshqa raqamli addiksiyalardan farqlashda uchta asosiy jihat alohida ahamiyatga ega: interaktivlik, personalizatsiya va fikrlash jarayoniga bevosita aralashuv. Birinchidan, SI bilan muloqotda interaktivlik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. An'anaviy raqamli addiksiyalarda foydalanuvchi ko'proq tayyor kontentni qabul qiladi [23]. SI bilan munosabatda esa foydalanuvchi suhbatni o'zi boshlaydi, savolni o'zi beradi, javobni aniqlashtiradi, qo'shimcha izoh so'raydi va dialog yo'nalishini o'zgartiradi [25]. Demak, bu yerda



stimulning o'zi tayyor kontent emas, balki dialogik jarayon, javob kutish va javobga javoban yana yangi savol berish imkoniyatidir. Bu jarayon foydalanuvchini suhbat ichida ushlab turuvchi mustahkamlovchi aylanmaga aylanishi mumkin.

Ikkinchidan, SI qaramligida personalizatsiya kuchli psixologik omil sifatida ishlaydi. Raqamli platformalar foydalanuvchining qiziqishlariga qarab kontent tavsiya qilishi mumkin, ammo SI real vaqt rejimida foydalanuvchining fikr uslubi, savol berish tarzi, emotsional ohangi va kommunikativ ehtiyojlariga moslashgan javoblar yaratadi [14]. Bu holat foydalanuvchida ijtimoiy mavjudlik illyuziyasini kuchaytiradi. Ya'ni u SI javoblarini oddiy avtomatik natija emas, balki o'ziga qaratilgan, mazmunli va shaxsiy muloqot sifatida qabul qiladi [15]. Shuning uchun SI foydalanuvchi ongida texnik vosita maqomidan chiqib, psixologik suhbatdosh obraziga yaqinlashadi.

Uchinchidan, SI qaramligining eng xavfli jihatlaridan biri uning fikrlash jarayoniga bevosita aralashuvidir. Internet yoki ijtimoiy tarmoq qaramligi ko'proq diqqatning chalg'ishi, vaqtni yo'qotish yoki ijtimoiy faoliyatning kamayishi bilan izohlansa, SI qaramligi tafakkurning ichki bosqichlariga kirib boradi [7]. U muammoni qo'yish, savol yaratish, g'oya ishlab chiqish, dalillarni tartibga solish, qaror variantlarini baholash va refleksiya qilish kabi jarayonlarda faol ishtirok etadi [6]. Bu holat foydalanuvchining intellektual mustaqilligiga ikki tomonlama ta'sir qiladi: bir tomondan, SI o'rganish va fikrlashni tezlashtirishi mumkin; ikkinchi tomondan, undan nazoratsiz foydalanish shaxsning o'z aqliy strategiyalarini kamroq ishg'a solishiga olib keladi.

Fikrlash jarayoniga aralashuv ayniqsa ta'lim muhitida jiddiy masala hisoblanadi. Talaba muammoni o'zi aniqlash o'rniga SIga topshirsa, ilmiy tafakkurning boshlang'ich bosqichi zaiflashadi. Savollarni SI shakllantirib bersa, metakognitiv monitoring - ya'ni "men nimani bilmayman?", "qanday savol berishim kerak?", "qaysi dalil yetarli emas?" kabi ichki nazorat jarayonlari sustlashadi. G'oyalarni SI taklif qilsa, talaba ijodiy izlanishdan ko'ra tayyor variantlarni tanlashga odatlanadi. Qaror qabul qilishda SI javoblari tez va izchil ko'ringani uchun foydalanuvchi ularni mustaqil tekshirmasdan qabul qilishi mumkin [11]. Bu esa avtomatlashtirilgan tizimlarga ortiqcha ishonish, ya'ni automation bias xavfini kuchaytiradi [12].

SI qaramligining yana bir murakkab tomoni shundaki, unda kognitiv va emotsional bog'lanish birgalikda shakllanadi. Klassik raqamli addiksiyalarda foydalanuvchi ko'pincha kontent, o'yin mukofoti yoki ijtimoiy tasdiqqa bog'lanadi [21]. SI qaramligida esa foydalanuvchi bir vaqtning o'zida dialogdan, emotsional yengillikdan, intellektual yordamdan va shaxsga moslashgan javoblardan qoniqish oladi [5]. Bunday ko'p qatlamli mukofot tizimi qaramlik spiralini kuchaytiradi. Chunki SI foydalanuvchining ham bilish ehtiyojiga, ham emotsional ehtiyojiga, ham ijtimoiy muloqotga bo'lgan ehtiyojiga bir vaqtning o'zida javob qaytaradi.

Shu nuqtayi nazardan, sun'iy intellektga qaramlikni faqat salbiy holat sifatida soddalashtirib talqin qilish ham to'g'ri emas. Muammo SI mavjudligida emas, balki undan foydalanish usuli, chastotasi, maqsadi va psixologik funksiyasidir. Agar foydalanuvchi SI'dan tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, bilimni tekshirish, muqobil g'oyalarni solishtirish yoki ijodiy izlanishni kengaytirish uchun foydalansa, SI ta'limiy va intellektual rivojlanish vositasiga aylanishi mumkin. Aksincha, agar SI mustaqil fikrlash o'rnini egallasa, emotsional muammolardan qochish vositasiga aylansa va real ijtimoiy muloqotni siqib chiqarsa, u psixologik qaramlik xavfini kuchaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellektga qaramlikning oldini olish uchun foydalanuvchida raqamli gigiyena, tanqidiy tafakkur, meta-kognitiv nazorat va emotsional o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Ta'lim jarayonida SI vositalarini to'liq taqiqlash emas, balki ulardan ongli, maqsadli va nazoratli foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Talabalar SI javoblarini yakuniy haqiqat sifatida emas, balki tekshirilishi, solishtirilishi va qayta ishlanishi kerak bo'lgan yordamchi material sifatida qabul qilishga o'rgatilishi lozim. Bu yondashuv bir tomondan sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ikkinchi tomondan esa kognitiv mustaqillikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Yakuniy jihatdan, sun'iy intellektga qaramlik inson va texnologiya o'rtasidagi oddiy foydalanish munosabatidan tashqariga chiqadigan, kognitiv, emotsional, xulq-atvor va algoritmik-kommunikativ komponentlar birligida shakllanadigan murakkab psixologik fenomen hisoblanadi [18]. Uning asosiy xavfi shundaki, SI nafaqat vaqtni band qiladi, balki fikrlash, savol qo'yish, qaror qabul qilish, emotsional regulyatsiya va refleksiya jarayonlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [6]. Shu sababli SI qaramligini ilmiy jihatdan o'rganish, diagnostik indikatorlarini aniqlashtirish, empirik o'lchov vositalarini ishlab chiqish va profilaktik mexanizmlarini yaratish raqamli jamiyat sharoitida shaxsning kognitiv mustaqilligi hamda psixologik barqarorligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2024, 13-avgust). Sun'iy intellekt va startup loyihalarni rivojlantirish bo'yicha taqdimot o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/7464>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2024, 14-oktyabr). Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-358-son. <https://lex.uz/docs/-7158604>

3. Zhang, X., Yin, M., Zhang, M., Li, Z., & Li, H. (2025). The development and validation of an Artificial Intelligence Chatbot Dependence Scale. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 28(2), 126–131. <https://doi.org/10.1089/cyber.2024.0240>
4. Yu, S.-C., Chen, H.-R., & Yang, Y.-W. (2024). Development and validation of the Problematic ChatGPT Use Scale: A preliminary report. *Current Psychology*, 43, 26080–26092. <https://doi.org/10.1007/s12144-024-06259-z>
5. Maral, S. (2025). Problematic ChatGPT Use Scale: AI-human collaboration or unraveling the dark side of ChatGPT. *International Journal of Mental Health and Addiction*. <https://doi.org/10.1007/s11469-025-01509-y>
6. Gerlich, M. (2025). AI tools in society: Impacts on cognitive offloading and the future of critical thinking. *Societies*, 15(1), 6. <https://doi.org/10.3390/soc15010006>
7. Zhai, C., Wibowo, S., & Li, L. D. (2024). The effects of over-reliance on AI dialogue systems on students' cognitive abilities: A systematic review. *Smart Learning Environments*, 11, Article 28. <https://doi.org/10.1186/s40561-024-00316-7>
8. Risko, E. F., & Gilbert, S. J. (2016). Cognitive offloading. *Trends in Cognitive Sciences*, 20(9), 676–688. <https://doi.org/10.1016/j.tics.2016.07.002>
9. Sparrow, B., Liu, J., & Wegner, D. M. (2011). Google effects on memory: Cognitive consequences of having information at our fingertips. *Science*, 333(6043), 776–778. <https://doi.org/10.1126/science.1207745>
10. Dror, I. E., & Harnad, S. (2008). Offloading cognition onto cognitive technology. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/0808.3569>
11. Parasuraman, R., & Riley, V. (1997). Humans and automation: Use, misuse, disuse, abuse. *Human Factors*, 39(2), 230–253. <https://doi.org/10.1518/001872097778543886>
12. Buçinca, Z., Malaya, M. B., & Gajos, K. Z. (2021). To trust or to think: Cognitive forcing functions can reduce overreliance on AI in AI-assisted decision-making. *Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction*, 5(CSCW1), 1–21. <https://doi.org/10.1145/3449287>
13. Alon-Barkat, S., & Busuioc, M. (2023). Human-AI interactions in public sector decision-making: “Automation bias” and “selective adherence” to algorithmic advice. *Journal of Public Administration Research and Theory*, 33(1), 153–169. <https://doi.org/10.1093/jopart/muac007>
14. Klein, S. H., Rupp, M. A., & Shanteau, J. (2025). The effects of human-like social cues on social responses towards text-based conversational agents: A meta-analysis. *Humanities and Social Sciences Communications*, 12, Article 1459. <https://doi.org/10.1057/s41599-025-05618-w>
15. Nass, C., & Moon, Y. (2000). Machines and mindlessness: Social responses to computers. *Journal of Social Issues*, 56(1), 81–103. <https://doi.org/10.1111/0022-4537.00153>
16. Griffiths, M. D. (2005). A “components” model of addiction within a biopsychosocial framework. *Journal of Substance Use*, 10(4), 191–197. <https://doi.org/10.1080/14659890500114359>
17. Brand, M., Young, K. S., & Laier, C. (2014). Prefrontal control and Internet addiction: A theoretical model and review of neuropsychological and neuroimaging findings. *Frontiers in Human Neuroscience*, 8, Article 375. <https://doi.org/10.3389/fnhum.2014.00375>
18. Brand, M., Wegmann, E., Stark, R., Müller, A., Wöfling, K., Robbins, T. W., & Potenza, M. N. (2019). The Interaction of Person-Affect-Cognition-Execution (I-PACE) model for addictive behaviors: Update, generalization to addictive behaviors beyond Internet-use disorders, and specification of the process character of addictive behaviors. *Neuroscience & Biobehavioral Reviews*, 104, 1–10. <https://doi.org/10.1016/j.neubiorev.2019.06.032>
19. American Psychiatric Association. (2022). Internet gaming. *Psychiatry.org*. <https://www.psychiatry.org/patients-families/internet-gaming>
20. World Health Organization. (2020). Addictive behaviours: Gaming disorder. <https://www.who.int/standards/classifications/frequently-asked-questions/gaming-disorder>
21. Pontes, H. M., & Griffiths, M. D. (2015). Measuring DSM-5 Internet Gaming Disorder: Development and validation of a short psychometric scale. *Computers in Human Behavior*, 45, 137–143. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2014.12.006>
22. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2014). Internet addiction: A systematic review of epidemiological research for the last decade. *Current Pharmaceutical Design*, 20(25), 4026–4052. <https://doi.org/10.2174/13816128113199990617>
23. Young, K. S. (1998). Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. *CyberPsychology & Behavior*, 1(3), 237–244. <https://doi.org/10.1089/cpb.1998.1.237>
24. Pontes, H. M., Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2015). Clinical psychology of Internet addiction: A review of its conceptualization, prevalence, neuronal processes, and implications for treatment. *Neuroscience and Neuroeconomics*, 4, 11–23. <https://doi.org/10.2147/NAN.S60982>
25. Weizenbaum, J. (1966). ELIZA - A computer program for the study of natural language communication between man and machine. *Communications of the ACM*, 9(1), 36–45. <https://doi.org/10.1145/365153.365168>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.